

KULOLCHILIKNING PAYDO BO'LISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ergashev Abdurasul Sunnatillayevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Kechki fakultet, Tarix yo'nalishi, 401-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211260>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, kulolchilikning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi, bugungi kunda hunarmandchilikdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, kulolchilik qadimgi davrdan boshlab, insoniyat tarixida ishlab chiqarish jarayonining rivojlanganligi anglatadi.

Kalit so'zlar: neolit, kulolchilik, S.P.Tolstov, Joytun madaniyati, Markaziy Osiyo, Kaltaminor madaniyati, Rishton, Buxoro, hunarmandchilik.

THE EMERGENCE OF POTTERY AND ITS SIGNIFICANCE TODAY

Abstract. This article talks about the origin and development of pottery and its importance in today's crafts. Also, pottery represents the development of the production process in the history of mankind since ancient times.

Key words: Neolithic, pottery, S.P. Tolstov, Joytun culture, Central Asia, Kaltaminor culture, Rishton, Bukhara, crafts.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ГОНЧАРСТВА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ СЕГОДНЯ

Аннотация. В данной статье говорится о зарождении и развитии гончарного дела, его значении в ремеслах сегодня. Также гончарное дело представляет собой развитие производственного процесса в истории человечества с древнейших времен.

Ключевые слова: неолит, керамика, С.П. Толстов, Джойтунская культура, Средняя Азия, Калтаминорская культура, Риштон, Бухара, ремесла.

KIRISH.

O'rta Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlardan biri. Tarixdan ma'lumki, insoniyat tarixi hozirgi kunga kelguniga qadar juda katta tarixiy bosqichni bosib o'tdi, Xususan insoniyat tomonidan ixtiro qilingan sohalardan biri hunarmandchilikning bo'g'ini bo'lgan kulolchilik bo'lib alohida ahamiyat kasb etadi.

Kulolchilikning paydo bo'lishi bir necha ming yillik qadim tarixga borib taqaladi.

Kulolchilik hunarmandchilikning bir turi sifatida yangi tosh ya'ni neolit (mil.av. 6-4 ming yilliklar) davrida ixtiro qilingan. Shubhasiz, neolit davri odamlarining eng katta yutuqlaridan biri bu kulolchilik bo'lib ular loydan kundalik turmushda foydalaniladigan idishlarni yasashni o'rgandilar. Keyinchalik xo'jalikda erishilgan yutuqlar samarasida ularni olovda pishirishni ham uddalaganlar. Bu esa o'sha davr turmush-tarzidan kelib chiqib so'z yuritadigan bo'lsak, juda katta kashfiyot edi. Neolit davri odamlari kulolchilik buyumlarini dastlab olovda pishirishni bilishmagan. Shuning uchun ham dastlabki kulolchilik buyumlari qo'pol va mo'rt bo'lgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida sopol idishlarning dastlabki yasash uslublari juda oddiydan vaqt o'tishi sayin murakkablashib borgan." Sopol idishlarning dastlabki shakllari ularning tagi tuxumsimon bo'lib, shakli neolit davri odamlarining ko'l yoqalarida, qumloqlardagi chaylalarda yashaganliklari bois shunday bo'lgan, ya'ni sopol idishlar ko'l yoqasidagi qum ustiga o'rnatilgan va ularni toshdan terilgan o'choqlarga qo'yish ham qulay bo'lgan.

So'nggi neolit davriga kelib sopol buyum shakli o'zgaradi. Tuvaksimon - osti yassi va tekis idishlar paydo bo'ladi, maydalashadi. Idishlar loy lentalar asosida qo'lda ishlangan. Idishlar naqshi ham oddiydan murakkabga o'zgarib boradi. Idishlar bir yarusli xumdonlarda pishirilgan. Lekin idishlar qo'pol, mo'rt bo'lgan.[1 B. 153] Insonning aql-zakovatining o'sib borishi bilan neolit davri odamlar yaxshi yaxshashga intilganlar.

Asosiy qism.

Markaziy Osiyodagi dastlabki dehqonchilik manzilgohlaridan birinchisi Joytun madaniyatidir. Joytun madaniyati faqat hozirgi Turkmanistonning janubi-g'arbiy hududlaridan topilgan. Bu madaniyat milloddan avvalgi VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar boshida mavjud bo'lgan deya hisoblashadi. O'rta Osiyoda dastlabki kulolchilik buyumlarini o'zining kundalik ehtiyojidan kelib chiqib foydalangan dastlabki xalq bu Joytun madaniyati sohiblaridir. Joytun madaniyati odamlari tomonidan dastlabki kulolchilik buyumlari qo'lda ishlangan. Uni bezashda esa geometrik naqshlardan foydalanilgan. N.Egamberdiyevaning fikricha, ilk Joytun madaniyatida kulolchilik buyumlaridan kam foydalanilgan.

Markaziy Osiyoda spool idishlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ishqorli va qalay-qo'rg'oshinli bo'yoqlar ishlatilgan. Kulolchilik buyumlarini bezashda qizil rang bilan bezaganlar. Ilk Joytun madaniyatida bezalgan idishlarda asosan to'lqinsimon chiziqlar uchrasa, so'nggi Joytunda esa to'rsimon bezaklar asosiy o'rinni egallaydi. Neolit davrida kulolchilik buyumlarining ixtiro qilinishi bevosita unga bo'lgan ehtiyojning mavjudligidir. Neolit davrining eng katta ixtirosi bu ishlab chiqaruvchi xo'jalik dehqonchilik va chorvachilik edi. Endi urug' jamoalarda maxsulot saqlash uchun buyumga ehtiyoj oshadi. Bu esa kulolchilik buyumlarini kashf etilishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyodan topilgan yana bir manzilgohlardan biri Ko'hna Xorazm hududidan topilgan Kaltaminor madaniyatidir. Bu manzilgoh Amudaryoning quyi qismida joylashgan bo'lib uni S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologik ekspeditsiya a'zolari o'rgangan.

“Kaltaminorliklarning sopol idishlarining yasash uslubi boshqa manzilgohlarnikidan farqli bo'lgan. Ular qopga o'xshash narsaga qum solib, atrofini loy bilan suvab chiqqanlar va quritilgan. Keyin yer tandirga o'xshash xumdonga bir nechta terilib, olov yoqilgan va xumdon og'zi berkitilgan. Katta haroratda olov yonib, idish ichida iz qoldirgan. Shu sabab sopol buyumlar tuxumsimon shaklda bo'lgan, lekin idish ichi pishmasdan qolgan. Sopol loyiga qamish yoki yantoqning toza kuli solingan. Sopol qozonlarga esa maydalangan toshlar qo'shilgan“.[3 B.57]

Neolit keyingi davrlarda sopol idishlarning yasash tartibida sezilarli takomillashuv ko'zga tashlandi. Eneolit davrining ilk va o'rta bosqichlaridagi sopollar neolit davridan qisman darajada farq qildi. Sopollarini tayyorlashda maydalangan somoni loyga qo'shib idish yasaganlar.

Kulolchilik charxini ixtiro qilindi. Endi kulolchilik charxida ishlov berilgan sopollar neolit davridagiga nisbatan anchagina mustahkam edi. Bunga sabab loyga gipsning aralashganligi edi.

Bu davr yutug'laridan yana biri sopollarni olovda pishirishda eneolit davri odamlarining tajribasi ancha oshganini, sopollarning sifatidan va xilma xil rangidan anglab olishimiz mumkin.

“Bular och sariq, sarg'ish och qizil va qizil angob bilan bo'yali, qora mineral rang bilan sopol yuziga turli xil geometrik naqshlar, hayvon va parrandalarning rasmi tushirila boshlandi“.[4 B. 64]

Endilikda sopol buyumlarning soni har doimgiga qaraganda ko'p, sifatli va sopollarning turlari ham birmuncha ko'paydi. Sopol buyum bu tarixni o'rganish uchun dastlabki moddiy manbaalar qatoridan mustahkam joy olgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sopol buyumlarga qarab ushbu xalqning turmush tarzi, diniy e'tiqodi, madaniyati va boshqa tomonlama ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin. Sopol buyumlardan nafaqat O'rta Osiyo xalqlari, qolaversa har bir millat vakillari tarixida o'z o'rniga egadir. O'rta Osiyoda xusasan, Samarqand, Xorazm, G'ijduvon, Toshkent, Kitob, Panjikent, Qoratog', Shahrisabz, Rishton hududlarida kulolchilik rivojlangan. Jumladan, Rishton O'zbekiston hududidagi kulolchilik markazlaridan biri hisoblanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholining deyarli hammasi kulollardan iborat edi.

Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi. Qizg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1-1,5 m chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi mahalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan har xil bo'yoqlar, kvartslar xum va olovbardosh gillarni qazib olishgan. Rishton kulolchiligida qismdan butunga yoki bo'lakdan butunga tamoyiliga ko'ra taqdim etilgan. Unda inson, hayvonlar va parrandalarning gavdasini ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik g'oyasi aks ettiriladi. 1990-2007 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga quyidagi tamoyilni qayd qilish mumkin. Rishtonlik ustalar an'anaviy merosni astoydil e'zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar xarakteriga o'zgarishlar kiritishdi. An'anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash an'analarga so'zsiz rioya qilish o'mini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirib bormoqda".[5 B. 28-29]

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, tariximizni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu o'rinda an'anaviy san'atga ham milliy badiiy hunarmandchiligimiz borasida ham islohatlar boshlandi. 1997-yil O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham yaqqol kulolchilik sohasini ham rivojlantirishga asos bo'ldi.

Kulolchilik O'zbekistonda hozirgi kunda o'z maktablariga ega. Xususan, Farg'ona vodiysida: Rishton kulolchilik maktabi qolaversa Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm hududlarida bunday kulolchilik maktablari hozirgi kunda ham o'z faoliyatini olib bormoqda.

XULOSA.

Tariximiz o'zining ulkan moddiy madaniyati bilan jahonga mashhurdir. Albatta buning negizi, xalqimiz o'z mehnati bilan yaratgan kulolchilik buyumlari bunga yaqqol dalildir.

Shuningdek, kulolchilikning tarixiy etishida ham ilm-fanning o'rnini kattadir. Sharqda birinchi va ikkinchi renessans davrlarida ham ilm-fan qatorida hunarmandchilikning amaliy usullari taraqqiy etgan. Bizning hozirgi kunda ham kundalik turmushda foydalanayotgan ushbu kulolchilik buyumlari shubhasiz o'zbek xalqining milliy boyligi sanaladi.

Bularni O'rta Osiyo hududida qay tariqa va qaysi davrda vujudga kelganligi ko'pchilik uchun qiziq bo'lgan tarixiy voqeyalikdir. Har bir xalq o'z mentalitetiga mos bo'lgan hunarmandchilik tarixini bilishi va uni qadrlashi o'z milliyligi va tarixiga bo'lgan hurmatning ifodasidir.

REFERENCES

1. Egamberdiyeva N . Arxeologiya- Toshkent-2011 53-bet
2. <https://society.uz> 9.11.2024 yil 18:06
3. Egamberdiyeva N . Arxeologiya- Toshkent-2011 57-bet
4. Egamberdiyeva N . Arxeologiya- Toshkent-2011 64-bet
5. Abdullayev N. O 'zbekiston san'ati tarixi. - Toshkent, 2007.
6. Oripov B. Jahon san'ati tarixi. 3 qismli. - Namangan, 2004-2007.
7. B.Oripov. O'zbekiston san'ati va me'morchiligi tarixi. - Namangan, 2007.
8. N.Abdullayev. Sharq xalqlari san'ati tarixi. - Toshkent, 2007.
9. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T., 1990.